



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

## **Source Studies Foundations of the Formation of Textbooks in Turkestan Jadid Schools**

**Mamasoliyeva Shahzoda Qodirjon qizi**

1st-year Master’s Student, Historiography, Source Studies and Methods of Historical  
Research Program Fergana State University

### **Abstract:**

This article analyzes the formation process of textbooks for new-method (usul-i jadid) schools, which was one of the most crucial directions of the Jadid movement in Turkestan at the beginning of the 20th century, from a source-study perspective. In the research, textbooks on the alphabet, native language, history, geography, and ethics created by Jadid enlighteners such as Mahmudkhodja Behbudiy, Munavvarkari Abdurashidkhanov, Abdulla Avloni are examined as primary historical sources. The author reveals the publishing history of the textbooks, their structural features, ideological and content characteristics, as well as the influence of the socio-political environment of that period on the content of educational literature. The article provides a source-study classification of Jadid textbooks and scientifically substantiates their historical role in the national awakening and reform of the education system.

### **Keywords**

Turkestan, Jadidism, new-method schools, textbooks, source studies, primary source, enlightenment, national press, reform.

### **Turkiston jadid maktablari darsliklari shakllanishining manbashunoslik asoslari**

Farg‘ona davlat universiteti Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot  
usullari mutaxassisligi 1- kurs magistranti

**Mamasoliyeva Shahzoda Qodirjon qizi**



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

**Annotatsiya:**

Ushbu maqolada XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan jadidchilik harakatining eng muhim yo‘nalishlaridan biri - yangi usul (usuli jadid) maktablari darsliklarining shakllanish jarayoni manbashunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotda Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy kabi jadid marifatparvarlari tomonidan yaratilgan alifbo, ona tili, tarix, geografiya va axloqqa oid darsliklar birlamchi tarixiy manba sifatida tadqiq etilgan. Muallif darsliklarning nashr etilish tarixi, ularning tarkibiy tuzilishi, g‘oyaviy-mazmuniy xususiyatlari hamda o‘sha davr ijtimoiy-siyosiy muhitining darsliklar mazmuniga ko‘rsatgan ta‘sirini ochib beradi. Maqolada jadid darsliklarining o‘ziga xos manbashunoslik tavsifi berilib, ularning milliy uyg‘onish va maorif tizimini isloh qilishdagi tarixiy o‘rni ilmiy asoslab berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Turkiston, jadidchilik, yangi usul maktablari, darsliklar, manbashunoslik, birlamchi manba, ma‘rifatparvarlik, milliy matbuot, islohot.

**Аннотация:**

В данной статье с источниковедческой точки зрения анализируется процесс формирования учебников новометодного (усули джадид) образования, ставшего одним из важнейших направлений джадидского движения в Туркестане в начале XX века. В исследовании в качестве первичных исторических источников рассматриваются учебники по алфавиту, родному языку, истории, географии и этике, созданные такими просветителями-джадидами, как Махмудходжа Бехбуди, Мунавварқари Абдурашидханов, Абдулла Авлони. Автор раскрывает историю издания учебников, их структурные особенности, идейно-содержательные характеристики, а также влияние социально-политической среды того периода на содержание учебной литературы. В статье дается источниковедческая



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

классификация джадидских учебников и научно обосновывается их историческая роль в национальном возрождении и реформировании системы образования.

**Ключевые слова:** Туркестан, джадидизм, новометодные школы, учебники, источниковедение, первичный источник, просветительство, национальная пресса, реформа.

**KIRISH:**

XX asr boshlarida o‘lkamiz hayotida tub burilish yasagan jarayonlardan biri yuz berdi, bu jadidchilik harakatining yuzaga kelishi edi. Ular o‘lka aholisi ma’rifatli bo‘lishi va milliy o‘zligini anglab yetishi tarafdori bo‘lishgan. Bu yo‘lda bir qancha amaliy dasturlar ishlab chiqishgan. Shunday dasturlardan biri yangi usul maktablarining ochilishi bo‘ldi.

Manbashunoslik nuqtai nazaridan jadid maktablari darsliklari o‘sha davrning ijtimoiy-siyosiy, madaniy va ilmiy muhitini aks ettiruvchi muhim hujjat bo‘lib xizmat qiladi. Ular orqali jadidlarning pedagogik qarashlari, ta’lim metodlari va milliy uyg‘onish g‘oyalari tahlil qilinadi. Darsliklarning shakllanish jarayonini tahlil qilish, ularning manbashunoslik asoslarini aniqlash tarixiy tadqiqotlarda asosiy ahamiyat kasb etuvchi dolzarb mavzulardan biri bo‘ladi.

Jadidchilik harakati namoyondolari hayotini o‘rganish mustaqillik davridan keyin yanada tizimli tus oldi. Bu boradagi ishlar bugungi kunda ham davom ettirib kelinmoqda. Yurtboshimiz ta’kitlab o‘tganlaridek: “Bu ma’naviy xazinani qancha ko‘p o‘rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko‘p savollarga to‘g‘ri javob topamiz.”[1]. Bu mavzu kelajak avlod uchun ham ibrat, ham yo‘l ko‘rsatuvchi dasturiy qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

Jadidlarning millatni uyg‘otish va mustamlakachilik kishanlaridan ozod qilish yo‘lidagi eng dastlabki qadami ta‘lim tizimini isloh qilish va usuli jadid maktablarini tashkil etish bo‘ldi. Biroq, bu maktablar shunchaki yangi binolar emas, balki butunlay yangi g‘oya va mazmundagi o‘quv adabiyotlarini ham talab qilar edi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy kabi ko‘plab ma‘rifatparvarlar tomonidan qisqa muddatda o‘nlab darsliklar yaratildi va nashr etildi.

Shunday shaxslardan biri Mahmudxo‘ja Behbudiy edi. Behbudiy o‘lkaga Turkiston mintaqasida Gaspirinskiy metodini qo‘llagan holda yangi tipdagi usuli jadid maktabini ochgan pedagog hisoblanadi[2].

U yaratgan **“Islomning qisqacha tarixi”**, **“Aholi geografiyasiga kirish”**, **“Rossiyaning qisqacha geografiyasi”**, **“Islom amaliyoti”** kabi kitoblar jadid maktablari ta‘lim tizimining shakllanishida muhim manba bo‘lib xizmat qilgan.

O‘z davrining rivojiga hissa qo‘shgan ma‘rifatparvarlardan yana biri Munavvarqori Abdurashidxonov hisoblanadi. U 1903 - yildan boshlab yangi tipdagi maktablar ochib, o‘quvchilarga dars bergan. Bu maktablar uchun u tovush usulida yozilgan alifbe va o‘qish kitoblarini yaratdi. 1907 - yilda nashr etilgan **“Adibi avval”** (“Birinchil adib”) alifbe kitobi jadid maktablarida savod o‘rgatishda muhim qo‘llanma bo‘ldi. Shu yili chop etilgan **“Adibi soniy”** (“Ikkinchi adib”) o‘qish kitobida esa “Himmatli faqir” she‘ri keltirilgan bo‘lib, bu asar bir necha bor qayta nashr qilingan[3].

Manbashunoslik nuqtai nazaridan Munavvarqorining bu darsliklari jadid ta‘lim tizimining shakllanishini o‘rganishda asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Ularning mazmuni orqali jadidlarning pedagogik qarashlari, tovush usuliga asoslangan savod o‘rgatish metodlari va o‘quv dasturlarining rivojlanish jarayoni qanday kechganligini tahlil qilish mumkin bo‘ladi.



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

Abdurauf Fitrat Buxorolik mashhur ma’rifatparvar adib, adabiyotshunos olim, shoir va dramaturg sifatida O’rta Osiyo jadidchilik harakatining eng yirik siymolaridan biri bo’lgan. Fitratning Buxoro va Turkiston yangi usul maktablari uchun yozilgan “Bayonoti sayyohi hindi” (“Hind sayyohi bayonoti”) asari o’z davrining ijtimoiy-falsafiy manbasi sifatida alohida qimmatga ega[4].

Fitrat ushbu asarida Buxoroning ilmu ma’rifatni tarqatish yo‘lidagi tutgan tarixiy mavqei haqida to‘xtalib, o‘lkaning intellektual salohiyatiga shunday baho beradi: “Buxoro qadimdan g‘oyat dono va zukko bo‘lib yetishgan, fuzalo ahlini tarbiyalab, voyaga yetkazgan. Har kuni bir Ibn Sino, Forobiy, Muhammad Ismoil Buxoriy va Ulug‘bek kabilarni jahonga hadya etib, shu tariqa o‘zining sharaflari dovrug‘ini jahon xalqlarining quloqlariga zirak qilib taqqan”[5].

Ushbu iqtibosning manbashunoslik tahlili shuni ko‘rsatadiki, Fitrat o‘z asarlari va keyingi davr darsliklarida milliy uyg‘onish poydevorini aynan tarixiy xotirani tiklash, buyuk ajdodlar merosiga suyanish orqali shakllantirishni maqsad qilib olgan. Sayyoh tilidan aytilgan bu fikrlar shunchaki hissiy publisistika emas, balki Turkiston xalqlarida o‘zlikni anglash tuyg‘usini tarbiyalash, ularni tushkunlik va jaholat botqog‘idan olib chiqish uchun darsliklar matniga singdirilgan g‘oyaning manbaaviy ko‘rinishlaridan biri edi hisoblasab bo‘ladi.

### **NATIJA VA MUHOKAMA**

Olib borilgan manbashunoslik tahlili shuni ko‘rsatadiki, Turkiston jadid maktablari darsliklarining shakllanishi o‘lka maorifini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqdi va ularning har biri o‘ziga xos birlamchi manba, tamaltosh bo‘lib xizmat qildi.

Mahmudxo‘ja Behbudiydan boshlangan geografiya va tarixga oid darsliklar an‘anasi, o‘quvchilarda nafaqat diniy dunyoqarashni, balki hududiy, siyosiy hamda iqtisodiy



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

bilimlarni shakllantirishning asosiy manbai bo‘ldi. U yaratgan o‘quv qo‘llanmalarida mintaqaviy chegaralar, aholi tabiati va ijtimoiy tuzilish masalalarining tahlil qilinishi, ushbu darsliklarni XX asr boshi Turkiston etnografiyasi va sotsiologiyasini o‘rganishda yo‘l ko‘rsatuvchi mayoq bo‘lib xizmat qildi[6].

Munavvarqori Abdurashidxonovning “Adibi avval” va “Adibi soniy” asarlari esa o‘quv dasturlarining uslubiy jihatdan tizimlashganini ko‘rsatadi. Bu manbalarni tahlil qilishda qiyosiy tahlil usulidan foydalanish uning yanada samaraliroq natijalar olib kelishiga xizmat qiladi.

Fitratning “Bayonoti sayyohi hindi” asari esa jadidchilik harakatining ijtimoiy-falsafiy poydevorini mustahkamlashda alohida o‘rin tutadi[7]. U Buxoroning ilm-ma‘rifat tarqatishdagi tarixiy mavqegini yuksak baholab, ajdodlar merosiga tayanish orqali milliy uyg‘onish g‘oyasini shakllantirishni maqsad qilgan edi. Fitratning bu qarashlari darsliklar matniga singdirilgan bo‘lib, o‘quvchilarni o‘zligini anglash, ilmga intilishi va jaholat kishanlaridan ozod bo‘lishiga da‘vat qilingan edi. Uning yangi metodlarni joriy etishi va ta‘lim sifati yaxshilanishiga ko‘rsatgan ta‘siri hozirgi kunimizga qadar ta‘lim sohasidagi izlanishlar uchun namuna bo‘lib xizmat qilmoqda.

## **XULOSA**

Jadidchilik harakatining natijalari ulkan tarixiy va fojiali ahamiyatga ega. Bu harakat garchi siyosiy jihatdan sovetlar tomonidan bostirilgan bo‘lsa - da, millatning ongi, madaniyati va dunyoqarashida o‘chmas iz qoldirdi. Jadidlar qisqa vaqt ichida Turkiston xalqini o‘rta asrlar qoloqligidan zamonaviy dunyoqarash sari yetaklay oldilar. Ular yangi ta‘lim tizimini “Usuli jadid” maktablari bugungi zamonaviy o‘zbek maktablarining poydevori bo‘ldi. Savodxonlik darajasi oshdi. Hamda milliy matbuot rivojlandi.



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

Bugungi mustaqil O‘zbekistonning ziyolilari, olimlari va madaniyati aynan o‘sha jadidlar ekkan urug‘ning mevasidir. Bu harakat shunchaki maktab ochish emas, balki “Millatni qayta tarbiyalash” harakati edi desak bo‘ladi.

Jadidlarning “usuli jadid” maktablari uchun yaratgan darsliklari yetarlicha o‘rganib chiqilmagan, hatto ularning ko‘p qismi hozirgi tilimizga tarjima qilinishga muhtoj. Shularni hisobga olgan holda tadqiqotchilar va tarjimonlar tomonidan tarjima ishlariga ko‘proq e‘tibor berish maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

**Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro‘yxati**

- [1]. Address of President Shavkat Mirziyoyev to the Parliament dated January 24, 2020.
- [2]. Bahodir Karimov. Jadidlar, Mahmudxo‘ja Behbudiy. Toshkent: “Yoshlar nashriyot uyi”, 2022.
- [3]. Kurbanov I. Turkiston jadid maktablari tarixi. – Toshkent: Maorif, 2005. – 180 b.
- [4]. Qosimov B., Dolimov U. Ma‘rifat darg‘alari. Toshkent: O‘qituvchi, 1990.
- [5]. Бакиев М.И. История просветительного движения и свободомыслия в Средней Азии, конец XIX - начало XX века: Дисс. докт. ист. наук.- Душанбе, 2000.- 282 с.
- [6]. [library.ziyonet.uz](http://library.ziyonet.uz)
- [7]. <http://www.jadid.uz/>